

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-98</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
11 -ilova

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH
SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati” (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi matnlarda Bank deb yuritiladi) tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini shakllantirish tartibini hamda ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishning umumiy talablarini belgilaydi.

2. Ushbu Siyosatning asosiy maqsadi Bankda tavakkalchiliklarni boshqarishga bo‘lgan yaxlit yondoshuvini shakllantirish va bayon qilish hamda tavakkalchiliklarni boshqarishning integratsiyalashgan tizimini yaratish.

3. Siyosat bilan belgilangan asosiy maqsadlarga erishishda Bank tomonidan quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ishlar olib boriladi:

duchor bo‘lgan yoki duch kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklarning barcha turlari (shu jumladan, sezilarli tavakkalchiliklar)ni identifikatsiyalash, baholash, nazorat qilish va monitoring qilish;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining vakolatlar va hisobdorlik aniq ko‘rsatilgan, axborotlarning adekvat oqimini ta‘minlovchi adekvat tashkiliy tuzilmasini qurish;

Bank strategiyasini tasdiqlash doirasida ruxsat etilgan tavakkalchiliklar darajalarini belgilash va tasdiqlash.

4. Bankda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sezilarli tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining batafsil tafsiloti Bankning tegishli ichki qoidalarida ko‘rsatilib o‘tiladi.


5. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanildi:

bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi – bozordagi foiz stavkalari o‘zgarishining Bank portfelidagi aktivlar va majburiyatlarga ta‘sir qilishi natijasida zarar (yo‘qotish) ko‘rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

bozor tavakkalchiligi – valyuta kurslari, foiz stavkalari va moliyaviy instrumentlar narxlarining o‘zgarishi natijasida zarar (yo‘qotish) ko‘rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi – qarzdorning Bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va (yoki) shartlarda bajarilmasligi (lozim darajada bajarilmasligi) oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar (yo‘qotish) ko‘rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

komplayens tavakkalchiligi – O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik



hujjatlari, bankning ichki hujjatlari, shuningdek bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xorijiy mamlakatlarning hujjatlariga rioya etilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

likvidlilik tavakkalchiligi – Bank o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va/yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

operatsion tavakkalchilik – Bank ichki jarayonlarining lozim darajada emasligi, xodimlar yoki boshqa shaxslarning qasddan yoki ehtiyotsiz harakatlari, Bankning ichki tizimlaridagi xatoliklar yoki tashqi hodisalar ta'siri natijasida zarar (yo'qotish) ko'rish va/yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi;

risk-appetit – Bankning strategik maqsadlariga va biznes-reja ko'rsatkichlariga erishishda qabul qilishga tayyor bo'lgan sezilarli barcha tavakkalchiliklarning (jami umumlashgan holdagi hamda ularning har biri bo'yicha alohida) miqdori;

risk-appetit bayonoti – Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan va Bankning risk-appetitini belgilaydigan hujjat;

risk profili – Bankda belgilangan sanada mavjud bo'lgan sezilarli tavakkalchiliklar (barcha sezilarli tavakkalchiliklar bo'yicha umumlashgan hamda ularning har biri bo'yicha alohida) miqdori;

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi – Bank faoliyatiga oid bo'lgan barcha tavakkalchiliklarni tizimli aniqlash, o'lchash, monitoring va nazorat qilish, hisobotini yuritish hamda kamaytirishga qaratilgan, shuningdek bankning boshqaruv organlari va tavakkalchiliklarni boshqarishga mas'ul bo'linmalarining o'zaro munosabatlari tizimi;


Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi - Bank Kuzutuv kengashi qoshidagi tashkil etiladi va Bankda tavakkalchiliklar monitoringini amalga oshirish uchun mas'ul organ hisoblanadi;

tavakkalchilik chegaralari – tavakkalchiliklar darajasini (miqdorini) chegaralash maqsadida risk-appetitning Bank faoliyati yo'nalishlari, mahsulotlari va boshqa mezonlar kesimida miqdoriy taqsimlanishi;

sezilarli tavakkalchiliklar – Bankning moliyalashtirish (kredit), likvidlilik, bozor, operatsion, komplayens, mamlakat tavakkalchiliklari va bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi;

stress-test o'tkazish – past bo'lsada, sodir bo'lish ehtimoli mavjud bo'lgan hodisalarning (tavakkalchiliklarning) Bankning moliyaviy holatiga ehtimoliy ta'sirini baholash.

6. Bank qabul qilinayotgan tavakkalchiliklar bilan amalga oshirilayotgan amaliyotlar daromadlilik o'rtasidagi optimal balansni (muvozanatni) saqlashning samarali choralarini qo'llashga qaratilgan Tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi doirasida harakat qiladi.



2-bob. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi

7. Bank tavakkalchiliklarni boshqarishning joriy bozor holati, Bank strategiyasi, hajmi, amaliyotlar murakkablik darajasiga mos bo'lgan, shuningdek tavakkalchiliklarni samarali aniqlash, o'lchash, nazorat va monitoring qilish imkoniyatiga ega tizimi mavjudligini ta'minlaydi.

8. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini;
tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatini;
tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha Bankning ichki jarayonlari, qoidalaru, hujjatlari hamda vositalarini;
tavakkalchiliklarni boshqarishga va hisobotlarni tayyorlashga mo'ljallangan axborot tizimini.

9. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi:
manfaatlar to'qnashuvini inobatga olgan holda Bankning barcha tarkibiy tuzilmalari va xodimlari o'rtasida tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha vazifalar, majburiyatlar va vakolatlarning aniq taqsimlanishini;

himoyaning uch chizig'i tizimi shakllantirilishi orqali tavakkalchiliklarni boshqarishga mas'ul tarkibiy tuzilmalar va ichki nazoratga mas'ul tarkibiy tuzilmaning Bank operatsion faoliyatidan ajratilishini;

Bank faoliyatining barcha yo'nalishlari va tashkiliy tuzilmasida kamida sezilarli tavakkalchiliklarni boshqarishning qamrab olinishini;

sezilarli tavakkalchiliklar xolisona va o'z vaqtida aniqlanishi, baholanishi hamda monitoring qilinishini, ular bo'yicha hisobot tayyorlanishini, ularning nazorat qilinishi va kamaytirilishini;

Bank xizmatlari uchun o'rnatilgan narx mazkur xizmatlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar va xarajatlarni inobatga olgan holda shakllantirilishini;

tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlarining to'liqligini va hujjatlashtirilishini ta'minlaydi.

10. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig'i metodiga asoslanadi hamda ushbu metodga asosan tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha majburiyatlar Bankning quyidagi tarkibiy bo'linmalari o'rtasida taqsimlanadi:

himoyaning birinchi chizig'i - bevosita Bank xizmatlarini ko'rsatishga mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmalar. Mazkur tarkibiy tuzilmalar tavakkalchiliklarni qabul qilib oladi, shuningdek tavakkalchiliklarning joriy boshqarilishi yuzasidan hisobotlar berib boradi;

himoyaning ikkinchi chizig'i - tavakkalchiliklarni boshqarishga mas'ul tarkibiy tuzilmalar hamda nazorat funksiyalari mavjud bo'lgan boshqa tarkibiy tuzilmalar. Mazkur tarkibiy tuzilmalar tavakkalchiliklarni aniqlaydi va boshqarib boradi;

himoyaning uchinchi chizig'i - Ichki audit boshqarmasi. Mazkur tarkibiy tuzilma tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tekshiradi va baholaydi.

11. Bank tavakkalchiliklarni aniqlash va boshqarish tizimi, javobgarliklar,

cheklovlar (limitlar)ni belgilash tartiblari Bankning tegishli ichki qoidalarida belgilanadi.

3-bob. Tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi

12. Tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi Bankda tavakkalchiliklarni boshqarishda ishtirok etuvchilarning vazifalari, majburiyatlari va vakolatlari aniq taqsimlanishini nazarda tutadi.

13. Bankdi tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi quyidagilardan tashkil topadi:

Bank Kuzatuv kengashi;

Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi va Audit qo'mitasi;

Ichki audit boshqarmasi;

Bank Boshqaruvi;

Moliyalashtirish qo'mitasi va Likvidlilikni boshqarish qo'mitasi;

Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasi;

Komplayens va ichki nazorat boshqarmasi;

Bank xizmatlarini ko'rsatishga mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmalar.

14. Bank Kuzatuv kengashi Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali joriy etilishini ta'minlaydi hamda uning ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bank Kuzatuv kengashi tavakkalchiliklar boshqarilishini ta'minlash maqsadida lozim bo'lgan barcha vazifalarni bajaradi.

Bank Kuzatuv kengashi Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasi va Komplayens va ichki nazorat boshqarmasining mustaqilligini ta'minlaydi.

Shuningdek, Bank Kuzatuv kengashi yirik tavakkalchiliklarga oid bitimlarni tuzishga doir qarorlar qabul qiladi. Bunda, yirik tavakkalchilik deganda jami summasi Bank birinchi darajali kapitalining 10 foizi va undan yuqori bo'lgan bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchiliklar tushuniladi.



15. Bank Boshqaruvi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan risk-appetit bayonoti, ushbu Siyosat va boshqa ichki qoidalarga muvofiq tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi va ushbularni amalga oshirish bo'yicha lozim bo'lgan barcha vazifalarni bajaradi.

16. Komplayens va ichki nazorat boshqarmasi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi va ushbularni amalga oshirish bo'yicha lozim bo'lgan barcha vazifalarni bajaradi.

17. Bankda Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasining vazifa, majburiyat va vakolatlarini belgilovchi nizom ishlab chiqiladi hamda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasining Nizomida ushbu boshqarmaning quyidagi vazifalari belgilab o'tiladi:

turli omillarning Bank moliyaviy holati, risk profili, kapitali va likvidlilikiga



ta'sirini tahlil qilish uchun qo'llaniluvchi uslubiyot hamda vositalarni ishlab chiqish va ularning dolzarb holatda bo'lishini ta'minlash;

moliyalashtirish (kredit), bozor, operatsion, likvidlilik, mamlakat tavakkalchiliklarini va bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini baholash metodlarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish;

sezilarli tavakkalchiliklarning o'z vaqtida aniqlanishi, baholanishi, monitoring qilinishi va ular bo'yicha hisobot tayyorlanishi, nazorat qilinishi hamda mazkur tavakkalchiliklarning kamaytirilishini ta'minlash;

tavakkalchiliklarni yuzaga keltiruvchi holatlar sodir bo'lganligi yoki qisqa muddatlarda sodir bo'lishi haqida erta ogohlantirish tizimlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish. Mazkur tizimlar tasdiqlangan risk-appetit va tavakkalchilik chegaralari buzilishiga yaqinlashish yoki buzilish holatlarini aniqlash, monitoring qilish va zarur tavsiyalarni ishlab chiqishda qo'llanishi lozim;

risk-appetit bayonoti, moliyalashtirish (kredit) siyosati, sezilarli tavakkalchiliklarning har birini aniqlash uslubiyotini o'z ichiga qamrab oluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati, Bankning yangi mahsulotlarni joriy etish siyosati, stress-test o'tkazish tartibi, Bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi, tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va boshqa hujjatlar dolzarbligini va samaradorligini baholab borish, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

tavakkalchiliklarni baholash metodlarini, shu jumladan moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini baholash uchun reyting metodlarini va (yoki) skoring tizimlarini tekshirib borish;

Bank xizmatlari uchun narx ular bilan bog'liq tavakkalchilik va xarajatlarni inobatga olgan holda shakllanishini ta'minlash maqsadida narx siyosati samaradorligini baholab borish;

moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni baholash (moliyalashtirish turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, geografik hududlar va boshqalar), shu jumladan muammoli aktivlarni aniqlash jarayonlari va aktivlar sifatini tasniflash hamda ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish amaliyotining maqbulligini baholash;

Bankning yangi mahsulotlari joriy qilingunga qadar ular bilan bog'liq tavakkalchiliklar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

stress-testlarni o'tkazish;

yilda kamida bir marotaba Bankning risk-profilini va uni Bankning risk-appetiti hamda tavakkalchilik chegaralariga muvofiqligini baholash;

moliyalashtirish (kredit), likvidlilik, bozor, operatsion, mamlakat tavakkalchiliklari va bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi bo'yicha, jumladan Bankda mavjud yoki yuzaga kelishi kutilayotgan tavakkalchiliklar hamda ularni kamaytirish yuzasidan hisobotlarni Bank Kuzatuv kengashi va Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasiga har chorakda, Bank Boshqaruviga har

oyda kiritish;

Bank xodimlarida sezilarli tavakkalchiliklar haqida tegishli bilimlarni shakllantirish maqsadida bir yilda kamida bir marotaba trening va o'quv seminarlarini tashkil etish;

kapital monandligini baholash bo'yicha ichki jarayonlar, stress-testlar va tavakkalchilik xususiyatlari asosida Bank kapitaliga nisbatan tabaqalashtirilgan talablarni belgilash bo'yicha takliflarni Bank Kuzatuv kengashi yoki Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi hamda Bank Boshqaruviga kiritish;

tavakkalchiliklarni aniqlash, o'lchash, monitoring va nazorat qilish, shuningdek stress-testlarni o'tkazishga mo'ljallangan Bank ichki modellarining ishonchliligi va samaradorligini muntazam ravishda baholash.

18. Bankning boshqa tarkibiy tuzilmalari o'z faoliyatlari davomida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining talablari, VKO tomonidan o'rnatilgan limitlar va cheklovlarga rioya qiladilar.

4-bob. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyati

19. Bankda Kuzatuv kengashi tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatining shakllanishiga mas'ul hisoblanadi.

20. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatini ta'minlash maqsadida quyidagi choralar ko'riladi:

xodimlarga tavakkalchiliklarni boshqarishda ularning o'ri haqida ma'lumot berilishi, bunda ularning Bank tomonidan o'rnatilgan risk-appetit va tavakkalchilik chegaralariga rioya etilishiga mas'ul ekanliklari to'g'risida xabardor qilinishi;

Bankning korporativ qadriyatlari, malaka standartlari, odob-axloq qoidalari va boshqa tegishli ichki qoidalari va hujjatlari xodimlarning e'tiboriga doimiy tarzda yetkazilishi hamda bu boradagi nazoratning o'rnatilganligi;

nomaqbul xatti-harakat va (yoki) qoidabuzarlikni amalga oshirganlik uchun intizomiy choralar qo'llanilishi haqida Bankning rahbariyati va xodimlari xabardor qilinishi va mazkur masala yuzasidan nazorat amalga oshirilishi;

xodimlar sezilarli tavakkalchiliklar haqida hamda mazkur tavakkalchiliklarni boshqarishda ularning vazifalari to'g'risida bilimga ega bo'lishi uchun seminar va treninglar o'tkazib borilishi;

Bankda barcha uchun doimiy ravishda ochiq bo'lgan ichki va tashqi muloqot tizimlarining tashkil etilishi.



5-bob. Tavakkalchiliklarni boshqarish uslublari

21. Tavakkalchiliklarni boshqarishning asosiy uslublari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tavakkalchilik vositalari va indikatorlarini identifikatsiya qilish, tahlil qilish va baholash;

amaliyotlarni reglamentlash;

limitlar o'rnatish;



amaliyotlarni diversifikatsiyalash;
tavakkalchilik to'g'risida oldindan (erta) ogohlantirish (oldini olish)
indikatorlari;

stress-test;

tavakkalchiliklarni xedjirlash.

22. Tavakkalchilik vositalari va indikatorlarini identifikatsiya qilish, tahlil qilish, baholash tavakkalchiliklarni boshqarishning boshlang'ich uslublari bo'lib, ularning maqsadi tavakkalchiliklarni aniqlash va identifikatsiyalash, tavakkalchiliklarning Bank faoliyatiga ta'siri xarakterini aniqlash, tavakkalchiliklarni o'lchash, hodisalar rivojining ehtimoliy ssenariylarini modellashtirish va bashorat qilishdan iborat.

23. Amaliyotlarni reglamentlash amaliyotlarni biznes-jarayonlarning samarali logistikasi va ichki nazorat tizimini yaratish tamoyillarini hisobga olgan holda shakllantirish yo'li bilan tavakkalchiliklarni sifatli boshqarishdir.

24. Limitlar (cheklovlar) o'rnatish tavakkalchiliklarni boshqarishning asosiy miqdoriy uslubi hisoblanadi. Bank tavakkalchiliklarini nazorat qilish limitlari Bank darajasida ham biznes-yo'nalishlari qirqimida ham o'rnatiladi.

25. Bankda quyidagilarga ichki limitlar o'rnatilishi mumkin:

aktivlar va majburiyatlar miqdorlari (ulushlari);

likvidlilikning ichki koeffitsiyentlari;

aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muddatlar bo'yicha uzilishlar;

valyuta turlari;

kapitallashtirishning ichki koeffitsiyentlari;

ochiq valyuta pozitsiyalari hajmlari;

moliyaviy vositalar bo'yicha konsentratsiya;

kontragentlar bilan amaliyotlar;

bitta qarz oluvchiga, shu jumladan Bank bilan alohida munosabatlardagi qarz oluvchiga maksimal tavakkalchilik;

bitta depozitorga depozitning maksimal summasi;

o'ttitta ta eng yirik depozitorlar depozitlarining maksimal ulushi;

moliyalashtirish hajmlari valyutalar, davlatlar, tarmoqlar, qarz oluvchilarning toifalari va mahsulotlar turlari bo'yicha o'rnatiladi;

garovlar turlari;

moliyalashtirish (kredit) portfelining sifat ko'rsatkichlari;

va boshqalar.

26. Amaliyotlarni diversifikatsiyalash aktiv va majburiyatlarni moliyaviy vositalar va portfellar darajasida ham, ularning tarkibiy qismlari bo'yicha ham turli komponentlar bo'yicha taqsimlash hisoblanadi.

Aktivlarni diversifikatsiyalash alohida portfellar va moliyaviy vositalar yoki ularning komponentlar bo'yicha daromadlilik (likvidlilik) pasaygan taqdirda yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi.

Majburiyatlarni diversifikatsiyalash esa Bankning alohida fondlashtirish manbalariga qaramligini cheklash imkonini beradi.

27. Tavakkalchiliklarni boshqarish boshqarmasi Bankning tarkibiy tuzilmalari bilan birgalikda tavakkalchiliklar vujudga kelishining oldini olish maqsadida muayyan davriylikda tahlil qilib boriladigan oldindan tavakkalchiliklar to'g'risida ogohlantirish (erta oldini olish) indikatorlarini ishlab chiqadi. Erta oldini olish indikatorlarini ishlab chiqishda Bank miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridan foydalanadi.

Alohida aktivlar va majburiyatlardagi konsentratsiyaning o'sishi, vakolatli organ tomonidan belgilangan Bank ichki limitlari yoki prudensial normativlarining (limitga yaqinlashish) kritik ko'rsatkichlariga yaqinlashish (limitoldi yondoshuv), daromadlarning pasayishi, Bank aktivlari sifati va moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi, kredit reytingining pasayishi va boshqalar erda oldini olish indikatorlari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

28. Bankda doimiy ravishda stress-test o'tkaziladi va bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarni, Bank faoliyati xarakteri va ko'lamidagi o'zgarishlarni, shuningdek Bankning stress vaziyatlardagi mavjud tajribasini baholanadi.

29. Tavakkalchiliklarni xedjirlash muddatli bitimlarni foiz stavkalaridagi, valyutalar kurslaridagi, mahsulotlar va moliyaviy vositalar narxlaridagi salbiy o'zgarishlardan sug'urtalash.

Bevosita bitim predmetini sug'urtalash, hosilaviy moliyaviy vositalar va xedjirlashning maxsus uslublari: svop, fyuchers, opsionlar va boshqa moliyaviy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

6-bob. Tavakkalchiliklarni boshqarishga oid ichki qoidalari va vositalari

30. Bank Kuzatuv kengashi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish uchun quyidagi ichki qoidalarni tasdiqlaydi:

Risk-appetit bayonoti;

Moliyalashtirish (kredit) siyosati;

Tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati;

sezilarli tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatlari;

Bankning yangi mahsulotlarni joriy etish siyosati;

Stress-test o'tkazish tartibi;

Bankning moliyaviy ahvolidan tiklash rejasi;

Tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi;

Tavakkalchiliklarni boshqarishga oid boshqa hujjatlar.

31. Risk-appetit bayonoti:

Bankning strategiyasi, biznes rejasi va byudjetga oid rejalashtirishiga muvofiq bo'lishi;

risk-appetitni shakllantirish jarayonida qo'llaniluvchi asosiy farazlarni o'z ichiga olishi;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-98</u>
	Sana: "№ <u>11</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>24</u> yil

tavakkalchilik chegaralarini tasdiqlash, doimiy ravishda monitoring qilish va ular bo'yicha hisobotlarni tayyorlashga oid tartib-taomillarni o'z ichiga olishi;

tavakkalchilik chegaralariga rioya etilmagan hollarda bankning boshqaruv organlari, tegishli tarkibiy bo'linmalari va xodimlarini xabardor qilish shakli va tartibini belgilashi;

risk-appetitga kiritilgan ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyoti va tartibini, shu jumladan risk-appetit darajalari hisob-kitob qilinishida ishtirok etuvchilar tarkibini o'z ichiga olishi;

har bir sezilarli tavakkalchilikning umumlashgan miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan miqdoriy ko'rsatkichlarni hamda Bank tomonidan tavakkalchiliklarni qabul qilish va kamaytirish asoslarini belgilovchi sifat xususiyatlarini o'z ichiga olishi;

kapital monandligi va likvidlilik koeffitsiyentlari bo'yicha o'rnatilgan minimal darajadan yuqoriroq bo'lgan maqbul darajalarni belgilashi;

Bank kutilmalari hamda stress-test natijalarini hisobga olishi;

Bankning tashkiliy tuzilmasi va xodimlarni rag'batlantirishga doir hujjatlarni inobatga olishi;

risk-appetitga rioya etilishini monitoring qilish imkoniga ega shaklda ishlab chiqilishi lozim.

32. Moliyalashtirish siyosati Bank tomonidan moliyalashtirishning umumiy qoidalari va tartibotlarini, uning bahosini, ta'minotga qo'yiladigan talablarni, tasniflashni, monitoringini, boshqarilishini va axborot (hisobot) taqdim etish jarayonini, uslubiyoti va tartibini o'z ichiga olishi lozim.

33. Sezilarli tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatlari Bankning moliyalashtirish (kredit), likvidlilik, bozor, operatsion, komplayens, mamlakat tavakkalchiliklari va bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini va boshqarishga qo'yiladigan talablar hamda sezilarli tavakkalchiliklarning risk-appetitiga qo'yiladigan talablarni, monitoringini va axborot (hisobot) taqdim etish jarayonini va tartibini o'z ichiga olishi lozim.

34. Bankda yangi mahsulotlarni joriy etish bo'yicha tegishli qaror qabul qilinishi, baholanishi va hujjatlashtirilishi lozim.

Bankning yangi mahsulotini joriy etishda quyidagilar baholanishi lozim:

yangi mahsulotni joriy etish loyihasining iqtisodiy asoslanganligi;


yangi mahsulotni qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalarida belgilangan talablarga muvofiqligi;

yangi mahsulot bilan bog'liq tavakkalchiliklar, ularning Bankning risk profili, risk-appetiti, prudensial normativlariga, shuningdek daromadlilik darajasiga ta'siri;

yangi mahsulot bilan bog'liq tavakkalchiliklarni monitoring qilish va boshqarish uchun yetarli bo'lgan ichki instrumentlarning mavjudligi;

yangi mahsulotga o'rnatiladigan narx narx siyosatiga muvofiqligi;

yangi mahsulotni joriy etishga tayyorligi.



35. Stress-testdan o'tkazish tartibida quyidagilar belgilanishi lozim:
stress-testdan o'tkaziladigan tavakkalchiliklar ro'yxati;
moliyalashtirish (kredit), likvidlilik, bozor va operatsion tavakkalchiliklarni stress-testdan o'tkazish uslubiyoti va vositalari;
stress-test o'tkazishda ishtirok etuvchi tarkibiy tuzilmalar, ularning mazkur jarayondagi vazifalari, majburiyatlari, vakolatlari;
stress-test natijalarini ko'rib chiqish, ularni VKOga taqdim etish tartibi.
Bank stress-test natijalarini Bankning strategiyasi va byudjetini, jumladan kapital va likvidliligini rejalashtirishda hamda Bank siyosatlarini ishlab chiqishda va tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonida qo'llaydi.

7-bob. Moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish

36. Bankda moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy etiladi.

37. Moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi bo'yicha o'rnatilgan risk-appetitni;
moliyalashtirish (kredit) siyosati hamda moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini;
moliyalashtirishga (kredit ajratishga) doir qarorlar qabul qilish jarayonini;
aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish jarayonini;
muammoli aktivlarni aniqlash va ular bilan ishlash tartibini;
moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazish tartibini;
moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi bo'yicha hisobot berish jarayonini.

38. Moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarishda balans va balansdan tashqari moddalardan quyidagilar hisobga olinadi:

Bankning moliyalashtirish bo'yicha talablari, shu jumladan qarz, kredit, mikroqarz, mikrokredit, lizing, overdraft, faktoring;

banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar;
moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi mavjud bo'lgan balansdan tashqari majburiyatlar, shu jumladan foydalanilmagan kredit liniyalari, chaqirib olinmaydigan majburiyatlar, moliyalashtirish bo'yicha boshqa majburiyatlar, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv, kafolat va kafilliklar);

hosilaviy instrumentlar bo'yicha bank balansidagi talablar va boshqa moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi mavjud bo'lgan aktivlar.

39. Moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish moliyalashtirish (kredit) jarayonini boshqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

40. Moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiliklarini boshqarishda ikki xil yondoshuv qo'llaniladi:



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-98</u>
	Sana: "№ 12" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

to'g'ri tavakkalchiliklarni (aniq bir qarzdor tavakkalchiliklarini) boshqarish;
moliyalashtirish (kredit) portfeli tavakkalchiliklarini, shu jumladan mamlakatlar, iqtisodiyot tarmoqlari, o'zaro bog'liq shaxslar va zarur hollarda Bank faoliyati uchun muhim bo'lgan boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha konsentratsiya tavakkalchiliklarini boshqarish.

41. Bankda moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini boshqarish yuzasidan alohida ichki qoida ishlab chiqiladi va u quyidagilarni qamrab oladi:

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi haqida hisobot berish tartibini;

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligining chegaralarini belgilash tartibini;
muammoli aktivlarni (kreditlarni) avvaldan (dastlabki bosqichda) aniqlashga qo'yilgan talablarni;

moliyalashtirishlarning to'planishiga (konsentratsiyasi), shu jumladan moliyalashtirish mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar, garov ta'minoti turi, valyutasi va qarz oluvchilar guruhi kesimida to'planishiga (konsentratsiyasi) nisbatan qo'yilgan talablarni;

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazishga qo'yilgan talablarni;

moliyalashtirish (kredit) tavakkalchiligi bo'yicha tayyorlanadigan hisobot shakllarini, ularni taqdim etish tartibi va davriyligini.

8-bob. Likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish

42. Bankda likvidlilik tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy etiladi.

43. Likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

likvidlilik tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetitni;

likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish siyosati va jarayonlarini;

likvidlilik tavakkalchiligini baholash va monitoring qilish vositalarini;

bank ish kuni davomida likvidlilikni boshqarish tartibini;

likvidlilik tavakkalchiligi bo'yicha stress-test o'tkazishni;

likvidlilik tavakkalchiligi bo'yicha hisobotlarni.

44. Bankda likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish yuzasidan alohida ichki qoida ishlab chiqiladi va u quyidagilarni qamrab oladi:

likvidlilik tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, yumshatish va likvidlilik tavakkalchiligi haqida hisobot berishga qo'yilgan talablarni;

likvidlilik tavakkalchiligi chegaralarini belgilash tartibini;

bank ish kuni davomida likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish tartibini;



aktivlar va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish tamoyillarini;
bozor va kontragentlardan resurs jalb qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda,
muqobil manbalar ro'yxati va tarkibini;
likvidlilik tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazishga qo'yilgan talablarni;
likvidlilik tavakkalchiligi bo'yicha tayyorlanadigan hisobot shakllari, ularni
taqdim etish tartibi va davriyligini.

9-bob. Bozor tavakkalchiliklarni boshqarish

45. Bankda bozor tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi bozor tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy etiladi.

46. Bozor tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
bozor tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetitni;
bozor tavakkalchiligini boshqarish siyosati va jarayonlarini;
bozor tavakkalchiligini baholash va monitoring qilish vositalarini;
bozor tavakkalchiligi bo'yicha stress-test o'tkazishni;
bozor tavakkalchiligi bo'yicha hisobotlarni.

47. Bankda yuzaga keladigan bozor tavakkalchiligi quyidagi tavakkalchiliklarni o'z ichiga oladi:

qimmatli qog'ozlar, qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi boshqa moliyaviy instrumentlar hamda qimmatli qog'ozlarning hosilalari qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi bozor foiz stavkalaridagi kutilmagan o'zgarishlar tufayli bankning savdo portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini;

Bankning aktivlari, majburiyatlari va balansdan tashqari moddalari qiymatiga ta'sir o'tkazuvchi xorijiy valyuta kurslari tebranishi oqibatida yuzaga keluvchi valyuta tavakkalchiligini;

qimmatbaho metallar, toshlar va tangalarning bozor qiymati o'zgarishi tufayli yuzaga keluvchi tovar tavakkalchiligini;

aksiyalarning va bazaviy aktivi aksiya bo'lgan qimmatli qog'ozlarning hosilalarining joriy (haqqoniy) bahosi emitentning faoliyati yoki qimmatli qog'ozlar bozoridagi tebranishlar natijasida o'zgarishi tufayli yuzaga keluvchi fond bozori tavakkalchiligini.

48. Bankda bozor tavakkalchiligini boshqarish yuzasidan alohida ichki qoida ishlab chiqiladi va u quyidagilarni qamrab oladi:

bozor tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va bu haqida hisobot berishni;

bozor tavakkalchiligi chegaralarini belgilash tartibini;

bozor tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazish tartibini;

bozor tavakkalchiligi bo'yicha tayyorlanadigan hisobot shakllari, ularni taqdim etish tartibi va davriyligini.

Esenbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>7-98</u>
	Sana: "№ <u>44</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

10-bob. Operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish

49. Bankda operatsion tavakkalchilikni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi joriy etiladi.

50. Operatsion tavakkalchilik quyidagilar bilan bog'liq holatlarda yuzaga keladi:

ichki firibgarlik;

tashqi firibgarlik;

xodimlarni boshqarish va mehnat muhofazasi;

mijozlar, Bank mahsulotlari va ishbilarmonlik normalari;

faoliyatdagi nobarqarorlik va ichki tizimlaridagi muammolar;

to'lovlarni amalga oshirish va to'lov hujjatlarini taqdim etishdagi muammolar.

51. Operatsion tavakkalchilikni boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

operatsion tavakkalchilik bo'yicha bankning risk-appetitini;

operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati va ichki tartiblarini;

operatsion tavakkalchilikni baholash va monitoring qilish vositalarini;

operatsion tavakkalchiliklar bo'yicha stress-test o'tkazish tartibini;

operatsion bardoshlilikni ta'minlash tartibini;

operatsion tavakkalchiliklar bo'yicha hisobotni.

52. Bankda operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish yuzasidan alohida ichki qoida ishlab chiqiladi va u quyidagilarni qamrab oladi:

operatsion tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va operatsion tavakkalchilik haqida hisobot berishga qo'yiladigan talablarni;

operatsion tavakkalchilik chegaralarini belgilash tartibini;

operatsion tavakkalchilik holatlarini aniqlash mezonlarini;

operatsion tavakkalchilikni stress-testdan o'tkazish tartibini;

operatsion tavakkalchilik bo'yicha tayyorlanadigan hisobot shakllari, ularni taqdim etish tartibi va davriyligini.

11-bob. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish

53. Bankda komplayens tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimini joriy etiladi.

54. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

komplayens tavakkalchiligini boshqarish siyosati va tartiblarini;

komplayens tavakkalchiligi bo'yicha hisobotni.

55. Bankda komplayens tavakkalchiligini boshqarish yuzasidan alohida ichki qoida ishlab chiqiladi va u quyidagilarni qamrab oladi:



operbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>7-98</u>
	Sana: "№ <u>12</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>21</u> yil

komplayens tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va bu haqida hisobot berilishini;
hisobotlar shakllari, ularni taqdim etish tartibi va davriyligini.

12-bob. Mamlakat tavakkalchiligini boshqarish

56. Bankda mamlakat tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi mamlakat tavakkalchiligini boshqarish tizimini joriy etiladi.

57. Bankda yuzaga keladigan mamlakat tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xorijiy mamlakatda cheklovlar, shu jumladan valyuta operatsiyalari bo'yicha cheklovlar kiritilishi natijasida qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajara olmasligi tufayli yuzaga keluvchi o'tkazmalarga oid tavakkalchilik;

xorijiy mamlakat hukumatining shartnomaviy majburiyatlarini bajara olmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi natijasida yuzaga keluvchi suveren tavakkalchiligi;

bir mamlakatda yuz bergan noxush hodisalar boshqa mamlakatdagi qarzdorlarning o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi natijasida yuzaga keluvchi zanjir ta'siri tavakkalchiligi.

58. Mamlakat tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi va u quyidagilarni qamrab oladi:

mamlakat tavakkalchiligini boshqarish siyosati va tartiblarini;

mamlakat tavakkalchiligi bo'yicha hisobotni taqdim etish tartibini.

13-bob. Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini boshqarish

59. Bankda bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi mamlakat tavakkalchiligini boshqarish tizimini joriy etiladi.

60. Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini boshqarishning samarali tizimi quyidagilarni o'z ichiga o'z ichiga oladi:

bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetitni;

bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini boshqarish siyosati va tartiblarini;


bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligini baholash va monitoring qilish vositalarini;

bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi bo'yicha stress-test o'tkazish tartibini;

bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi bo'yicha hisobotlarni.

61. Bank portfelida yuzaga keluvchi foiz tavakkalchiligi kamida quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

bank aktivlari va majburiyatlari, shu jumladan balansdan tashqari moddalari bo'yicha foiz stavkalari turli davrlarda o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi nomutanositliklar tavakkalchiligi;



bank aktivlari yoki majburiyatlari, shu jumladan balansdan tashqari moddalari bo'yicha foiz stavkalari bir-biridan farq qiluvchi bozor foiz stavkalariga (indekslarga) asoslangan bo'lsa, mazkur bozor foiz stavkalari (indekslar) o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi bazis tavakkalchiligi;

bankning mijozlarida bank aktivlari yoki majburiyatlari, shu jumladan balansdan tashqari moddalari bo'yicha to'lovlar miqdori yoki muddatlarini o'zgartirish huquqi mavjud bo'lib, ular mazkur huquqdan foydalanishi natijasida yuzaga keluvchi opsiya tavakkalchiligi.

14-bob. Tavakkalchiliklarni boshqarishga va hisobotlarni tayyorlashga mo'ljallangan axborot tizimi

62. Bank faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, jamlash, tavakkalchiliklarni ishonchli tarzda baholash hamda tavakkalchiliklar bo'yicha hisobotlar tayyorlash imkonini beruvchi tavakkalchiliklarni boshqarishga mo'ljallangan axborot tizimi joriy etiladi.

63. Tavakkalchiliklarni boshqarishga mo'ljallangan axborot tizimi Bank amaliyotlarining xususiyati, ko'lami va murakkablik darajasiga muvofiq bo'ladi va quyidagilar ta'minlanadi:

tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini;
axborotlarning to'liqligi va moslashuvchanligini;
hisobotlarning shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini.

15-bob. Yakuniy qoidalar

64. Mazkur Siyosat qoidalarini buzgan Bank xodimlari va shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

65. Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

66. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

67. Ushbu Siyosatning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-98</u>
	Sana: "№ 22" <u>oktabr</u> 20 <u>15</u> yil

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“OF” _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini shakllantirish tartibini hamda ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishning umumiy talablarini belgilaydi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining bayonnomasi asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning

Yuridik boshqarmasi boshlig'i

S.I. Salimov